

ISMOIL G'ASPIRALINING “XOTINLAR O'LKASI” ASARIDA UTOPIYAGA OID QARASHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ismatova Shirin Zayniddin qizi

CHDPU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20488014>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Ismoil G'aspiralining “Xotinlar o'lkasi” asari utopik va ijtimoiy-falsafiy nasr namunasi sifatida tahlil qilinadi. Asarda gender inversiyasi, alternativ jamiyat modeli, ijtimoiy eksperiment va ma'rifiy konsepsiya badiiy-falsafiy tizim asosida yoritilgani ochib beriladi. Tadqiqotda asarning utopik poetikasi, tanqidiy-utopik xarakteri hamda jadid adabiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi. Muallif ayollar hukmron bo'lgan jamiyat modeli orqali patriarxal stereotiplarni dekonstruksiya qilib, gender tengsizligi, ma'rifatsizlik va ijtimoiy sustlik muammolarini allegorik-fantastik shaklda tasvirlaydi. Asarda tarbiya, ma'rifat va ijtimoiy muhit inson tabiatini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, utopiya va antiutopiya elementlarining uyg'unligi, fantastik makon, ramziy obrazlar tizimi hamda pedagogik determinizm konsepsiyasi asarning muhim poetik belgilaridan biri sifatida baholanadi.

KALIT SO'ZLAR: Utopiya, tanqidiy utopiya, gender inversiyasi, jadid adabiyoti, ijtimoiy-fantastik nasr, pedagogik determinizm, sotsial konstruktivizm, ma'rifatparvarlik, alternativ jamiyat modeli, fantastik makon, allegoriya, gender diskursi, utopik poetika, ijtimoiy tanqid, ma'rifiy konsepsiya.

СВОЕОБРАЗНЫЕ ОСОБЕННОСТИ УТОПИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ИСМАИЛА ГАСПРИНСКОГО «СТРАНА ЖЕНЩИН»

Исматова Ширин Зайниддин кизи

Магистрант ЧПУ

АННОТАЦИЯ: В данной статье произведение Исмаил Гаспринский «Страна женщин» анализируется как образец утопической и социально-философской прозы. В произведении раскрываются гендерная инверсия, модель альтернативного общества, социальный эксперимент и просветительская концепция, представленные в рамках художественно-философской системы. В исследовании научно обосновываются утопическая поэтика произведения, его критико-утопический характер, а также место в джадидской литературе. Автор посредством модели общества, в котором доминируют женщины, деконструирует патриархальные стереотипы и в аллегорико-фантастической форме изображает проблемы гендерного неравенства, невежества и социальной пассивности. В произведении воспитание, просвещение и социальная среда трактуются как основные факторы, формирующие человеческую природу. Кроме того, сочетание элементов утопии и антиутопии, фантастическое пространство, система символических образов, а также концепция педагогического детерминизма рассматриваются как одни из важных поэтических особенностей произведения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: утопия, критическая утопия, гендерная инверсия, джадидская литература, социально-фантастическая проза, педагогический

детерминизм, социальный конструктивизм, просветительство, модель альтернативного общества, фантастическое пространство, аллегория, гендерный дискурс, утопическая поэтика, социальная критика, просветительская концепция.

THE DISTINCTIVE FEATURES OF UTOPIAN VIEWS IN ISMAIL GASPRINSKY'S WORK “THE LAND OF WOMEN”

Ismatova Shirin Zayniddin qizi
Master's student of CHDPU

ABSTRACT: This article analyzes Ismail Gasprinsky's work “The Land of Women” as an example of utopian and socio-philosophical prose. The work reveals gender inversion, an alternative social model, social experiment, and an educational concept within the framework of an artistic-philosophical system. The study scientifically substantiates the utopian poetics of the work, its critical-utopian character, and its place in Jadid literature. Through the model of a society dominated by women, the author deconstructs patriarchal stereotypes and portrays the problems of gender inequality, ignorance, and social passivity in an allegorical-fantastic form. In the work, upbringing, enlightenment, and the social environment are interpreted as the main factors shaping human nature. In addition, the combination of utopian and dystopian elements, fantastical space, the system of symbolic images, and the concept of pedagogical determinism are evaluated as some of the important poetic features of the work.

KEYWORDS: utopia, critical utopia, gender inversion, Jadid literature, socio-fantastic prose, pedagogical determinism, social constructivism, enlightenment, alternative social model, fantastical space, allegory, gender discourse, utopian poetics, social criticism, educational concept.

Kirish (Introduction). Ismoil G'aspiraliyning “Xotinlar o'lkasi” asarida utopiyaga oid qarashlar o'ziga xos badiiy-falsafiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ismoil G'aspiraliyning “Xotinlar o'lkasi” asarida utopiyaga oid qarashlar mavjud bo'lgan asar sifatida namoyon bo'ladi. Asar turkiy jadid adabiyotidagi dastlabki ijtimoiy-fantastik namunalardan biri bo'lib, uning utopik xarakterdagi ifoda usullari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar Sharq xalqlaridahayot shakllarining tenglik asosida qurilishi, kundalik hayotda ayollarning ahamiyati izohlangan deyish mumkin.

Tadqiqot maqsadi (Research Objective). Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Ismoil G'aspiraliyning “Xotinlar o'lkasi” asarida utopiyaga aloqador bo'lgan ba'zi jihatlarni xususan, inson qo'li bilan yaratilgan muqobil jamiyat modelini tahlil qilishdan iboratdir.

Tadqiqot “Xotinlar o'lkasi” asarining jadid adabiyotidagi tanqidiy utopiya namunasi sifatidagi o'rnini aniqlash va uning simvolistik belgilan asosida tasvir uslubida ochib berishini ham ko'zda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Methodology). Mazkur maqolada Ismoil G'aspiraliyning “Xotinlar o'lkasi” asaridagi qarshilashtirish g'oyalarni tahlil qilishda qiyosiy-chog'ishtirma adabiyotshunoslik, turli xil zamonaviy usullardan ham foydalanildi. Tadqiqotning nazariy I. Gaspiralining ideal davlar asosidagi ko'zqarashlari tashkil etadi.

A.V. Kuznetsovaning utopioyaga oid nazariyalari I. Gaspiralining asarini utopiklik xususiyatini dalillashda asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, G'arb adabiyotidagi ideallik - R. Bredberining “Fahrenheit 451” va J. Oruellning “1984” asarlari hamda G. Uellsning “Men Like Gods”

asari asos-tayanch sifatida jalb etildi. A.L. Mortonning “*Ingliz utopiyasi*” asaridagi g’oyalar esa utopik dunyoqarashning shakily jihatdan yoritishida muhim nazariy manba bo’ldi.

Tadqiqotda germinivtik, intertekstual, qiyoslashga doir tahlil metodlari qo’llanildi. Ushbu yondashuvlar “Xotinlar o’lkasi” asaridagiayollarning jamiyatda erkaklar bilan tenglik xususiyati, ideallik namunasi bo’lgan makon va hikoyaviy usullarga tayangan holda ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda asarning tanqidiy utopiya sifatidagi o’rnini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar (Results). Muallif ideal jamiyat ifodasini to’g’ridan-to’g’ri emas, balki ramzlar va tanqidiy fikrlar orqali - mavjud ijtimoiy tartibni teskari shaklda tasvirlash vositasida gavdalandiradi. Asar ahamiyati nuqtayi nazaridan “Xotinlar o’lkasi” sof utopiya emas, utopik belgilar seziluvchi asar sifatida baholanadi. Adabiyotshunoslikda tenglik prinsiplariga asoslangan satirik-utopik namuna hamda tanqidiy-tahliliy asar sifatida talqin etish ham ilmiy jihatdan asoslidir.

Asarning utopiklik xususiyati, eng avvalo, ijtimoiy tartibning teskari ko’rinishda qurilishida namoyon bo’ladi. Asarda erkak kishilar stereotiplar o’zgarishga yuz tutadi: ayollar harbiy, ijtimoiy boshqaruv va siyosiy vazifalarni bajaradi, erkaklar esa maishiy xizmat va itoatkorlik bilan tasvirlanadi. Bu poetik usul adabiyotshunoslikda tanqidiylikka asoslangan asar deb yuritiladi. Muallif ijtimoiy tartibning noodatiy shaklda tasvirlanishi orqali real hayotdagi muammolarga – ayollarning jamiyatda tengsizligi, ma’rifatsizlik va ikkinchi darajali shaxs sifatidagi talqinlar diqqatni qaratadi. Bu esa asarning utopik funksiyasini belgilab beruvchi asosiy badiiy mexanizmdir. Ismoil G’aspirali ayollar hukmron bo’lgan jamiyatni mutlaq ideal sifatida emas, balki muammoli va tizimli sifatida ko’rsatishga intilgan. Shu jihatdan “*asarda utopik elementlar bilan birga antiutopik tarkib ham ko’zga tashlanadi*”.[1] Bu ikki jihatning bir asarda uyg’unlashuvi “Xotinlar o’lkasi” asarini klassik utopiyadan ajratib turadigan asosiy xususiyatdir: yozuvchi ideal kelajakni tasvirlamaydi, balki mavjud ijtimoiy muammolarni hikoyaviy tahlil orqali ko’rsatadi. Asarda utopik poetikaga xos bir qator belgilar aniq ifodalangan: ayollarning boshqaruv salohiyati Ushbu belgilar majmuasi “Xotinlar o’lkasi” asarini utopik janrning to’laqonli namunasi sifatida tavsiflanishiga asos bo’ladi. Asarning g’oyaviy ahamiyati shundaki, inson tabiati biologik jihat bilan emas, balki ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Muallif jasorat, qo’rqoqlik, rahm-shafqat, boshqaruv qobiliyati va itoatkorlik kabi xususiyatlarni jins bilan bog’liq emas, balki tarbiyaning natijalari sifatida talqin qiladi. Bu qarash jadidchilik mafkurasining asosiy prinsipi - ma’rifat orqali jamiyatni o’zgartirish g’oyasi - bilan bevosita hamohangdir.

XIX asr oxiri jadid ma’rifatparvarligi davrining eng dolzarb vazifalarini badiiy asarga ko’chirgan Ismoil G’aspirali insonni ijtimoiy dunyoqarash mahsuloti sifatida talqin qilishni afzal bildi. Bu nuqtayi nazar ayolni tabiatan zaif, erkaklarni esa boshqaruvchi sifatida tasvirlash an’anasiga qarshi chiqib, ijtimoiy muhit va tarbiya mahsuli ekanligini asoslaydi. Asarda ayollar obrazi kollektiv tarzda - askar xotinlar ko’rinishida - ifodalangan bo’lib, ular harbiy jamiyatning timsolidir. “*Ijtimoiy almashinuvning badiiy mexanizmi aynan shu obrazlar tizimida ko’zga tashlanadi va erkak kishilarning ideal boshqaruvni hosil qiluvchi vosita sifatida muhim utopik vazifa bajaradi*”.[2] Muallif jasur, intizomli, jangga shay, qat’iyatli ayollarni tasvirlash orqali ayollarning erkaklashuvini va buning natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy muvozanat buzilishini ko’rsatadi. Aynan ushbu badiiy holatlar utopik janrga xos tasvirni belgilab beradi. Malika obrazi hokimiyat, xalqaro miqyosda yetakchilik timsolidir. U hayot va urush boshqaruvchi, harbiy kuzatuvni amalga oshiruvchi, askarlarni safarbar eta oladigan shaxs sifatida tasvirlangan.

Muallif Malika obrazida ayolning umumbashariy va umumiy salohiyatini ochib beradi. Biroq Malika to’laqonli ideal obraz emas - unda shafqsizlik va zo’ravonlik elementlari ham ko’zga

tashlanadi. Ismoil Gaspirali hokimiyatning jinnga emas, xulq-atvor sifatlariga bog'liqligini ko'rsatishga intilgan. Bu esa asarning utopik g'oyasini yanada murakkab va ko'p qirrali qiladi: muallif oddiy rol almashinuvini emas, insoniy fazilat va ma'suliyat masalasini birinchi o'ringa qo'yadi. Mister Martin obrazi Yevropa texnologiyasi va ratsional tafakkurining reprezentativ timsolidir. U strategik fikrlovchi, mohir mergan, taraqqiyot va kashfiyotning ramzi sifatida tasvirlanadi. Fransuz mantiqiy tafakkurining turkiy adabiyotga xos unsurlar bilan uyg'unlashuvida modernizatsiya ramzi sifatida ham talqin etiladi. Miltiq bu asarda oddiy harbiy vosita emas - u ilm-fan, zamonaviy ustunlik va G'arb hayot siklining metaforasi sifatida utopik matnning ramziy qatlamini boyitadi. Hikoyachi obrazi orqali muallifning mafkuraviy pozitsiyasi ifodalangan. U kuzatuvchi, sharhlovchi va axloqiy baholovchi sub'yekt sifatida asarning falsafiy xulosalarini bayon etishda pedagogik konsepsiya bilan muhim vazifa bajaradi.

Tarbiya orqali jamiyatni isloh qilish g'oyasi bevosita shu obraz orqali anglatiladi. Ayollar jangchi bo'lib voyaga yetgan, erkaklar esa maishiy vazifalarga moslashgan jamiyat hayotining ifodasidir. Ismoil G'aspiraliyning pedagogik faoliyati va ma'rifiy e'tiqodi bilan bevosita bog'liqdir. “Xotinlar o'lkasi” jadid nasrida olamshumul didaktik tahliliy asar deb topilib, adabiy jarayonda muhim o'rin egallaydi.

Gaspiraliyning boshqa asarlari asosan publitsistik uslubdagi ma'rifiy va panturkiy birlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan bo'lib, *“Xotinlar o'lkasi” ulardan turkey xalqlar obrazlarida uchramaydigan xarakteri bilan keskin ajralib turadi. Bu farq asarning utopik xususiyatini yanada yorqin belgilaydi: “muallif publitsistik to'g'ridan-to'g'ri da'vat o'rniga badiiy tahlilni tanqidni amalga oshiradi”.*[3] Asardagi ramziy obrazlar tizimi quyidagicha talqin qilinadi: sahro - sivilizatsion bo'shliq va ijtimoiy izolyatsiyaning ramzi; qal'a - tartib, himoya va muqobil ijtimoiy tuzumning metaforasi; miltiq - ilm-fan va texnologiyani ifodalovchi ramz; qora qayun - harbiy xavf va ijtimoiy beqarorlikning belgisi. Bu ramzlar tizimi asarning utopik makonini shakllantiruvchi poetik vositalar sifatida ahamiyatlidir. Ismoil G'aspirali utopik g'oyani mutlaq ayol hukmronligi orqali targ'ib qilmaydi. Uning asosiy maqsadi jinslar o'rtasidagi ijtimoiy tenglikni, ma'rifat va tarbiyani insoniy taraqqiyotning asosi sifatida ko'rsatishdir.

Tahlil va muhokama (Discussion). Muallif biologik ustunlik g'oyasini (ayollar) emas, ma'rifat va tarbiya g'oyasini ulug'laydi. Bu nuqtayi nazar asarning utopik konsepsiyasini belgilab beradi: “Xotinlar o'lkasi” asari orqali muqobil jamiyatini taqdim etish orqali real jamiyatdagi muammolarga javob izlaydi.

Gaspirali musulmon jamiyatidagi jaholat, gender tengsizligi, ma'rifatsizlik, ijtimoiy sustlik va siyosiy zaiflik kabi muammolarni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki taqqoslash orqali ochib beradi. Ushbu asar zamonaviy siyosiy nazariyalar doirasidagi g'arb adabiyoti stilida yaratilgan asarlar tamoyiliga yaqindir. Maishiy va itoatkor holatga tushgan erkaklar tasviri va ularga rahbarlik qilayotgan ayollar tasviri utopik g'oyalarning badiiy ifodasidir. *“Utopik tafakkur, metodlar va didaktik yondashuv asosida ifodalangan. Ismoil G'aspirali ijodining ushbu asarida o'zaro uyg'unlashadi. Realizm va orzu qilish kabi jihatlar Gaspiraliyning asosiy badiiy prinsipidir”.*[4] Bu yondashuv ijtimoiy yoki xayoliy haqiqat tushunchalari bilan izohlanadi. Asar estetik zavq manbai sifatida emas, balki ma'naviy vosita, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi vosita va siyosiy uyg'otishni harakatga keltiruvchi asos sifatida yaratilgan - bu esa jadid adabiyotining vazifaviy xususiyati bilan to'liq mos keladi. Antropologik qarashlar ushbu asarning muhim jihatlaridan birini tashkil etadi. Ismoil G'aspirali inson tabiatini o'zgarimas biologik jihat sifatida emas, balki tarbiya orqali shakllanuvchi hodisa sifatida talqin qiladi. Bu esa jadidchilik mafkurasining asosiy prinsipi bilan bevosita bog'liqdir. Asarda jaholat, liderlik, itoatkorlik, shafqatsizlik, rahm va jasorat kabi

tushunchalar ijtimoiy muhit va tarbiya mahsuli sifatida ko'rsatiladi. Muallif bu orqali ideal jamiyatning ham o'z ichki qarama-qarshiliklariga ega ekanligini ko'rsatadi.

“Xotinlar o'lkasi” jadid nasrida utopik-falsafiy nasrning namunasi bo'lib, unga oid qarashlar esa sayohat stilidagi taqqoslash asosida yaratilgan asar asosida amalga oshirilgan. Asar utopik adabiyotning quyidagi fundamental mezonlariga javob beradi:

Birinchi dalil – zamonaviy siklga asoslangan tasvirning mavjudligi. Ismoil Gaspirali Yaqin Sharq geografiyasidan tashqarida, ayollar hukmronlik qiladigan, o'ziga xos qonuniyatlar asosida yashaydigan mamlakatni tasvirlaydi. Bu adabiyot nazariyasidagi ideallik va asarning utopik xususiyatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Ikkinchi dalil - asarning ijtimoiy-tanqidiy vazifasi. Ismoil G'aspirali ayollarning ijtimoiy cheklanishini, Sharq jamiyatining sustligini, ma'rifatsizlik va patriarxal stereotiplarni ayollarni erkaklar o'rniga qo'yish usuli orqali fosh etadi. Bu usul utopik almashinuv deb ataladi va asarning tanqidiy-utopik xususiyatini eng yorqin ifodalovchi badiiy mexanizmdir

Uchinchi dalil - ijtimoiy tajriba xususiyati. Muallif go'yoki bunday savol qo'yadi: agar jamiyatdagi ayollar erkaklar rolini bajarsa, nima bo'ladi? Ushbu savolga fantastik badiiy model orqali javob beriladi. Boshqaruv va yetakchilikdagi rollari biologik emas, ijtimoiy belgilanadi, degan g'oya aynan ushbu tajriba orqali badiiy isbotlanadi.

To'rtinchi dalil – zamonaviy va madaniylashgan hudud. Utopik asarda noma'lum, yashirin yoki uzoq hudud tasvirlanishi shart mezon hisoblanadi. “Xotinlar o'lkasi” sahro ichidagi alohida, tashqi dunyodan ajralgan ayollar mamlakatini tasvirlaydi. Bu geografik joylashuv utopik makonning zaruriy belgisi sifatida asarning janr xususiyatini mustahkamlaydi.

Beshinchi dalil - asarning didaktik va dunyoviy xarakteri. Gaspirali asarni faqat voqea tasvirlab berish uchun yozmagan. Asarda tarbiya, inson tabiati va ma'rifat haqidagi falsafiy xulosalar organik tarzda singdirilgan. Biroq asar mutlaq ideal utopiya emas: zo'ravonlik, bosqinchilik va shafqatsizlik elementlarining mavjudligi uni tanqidiy utopiya qatoriga kiritadi. Aynan ushbu ikkilanish - ideal intilish va uning cheklanishlari o'rtasidagi ziddiyat - asarning utopik chuqurligini belgilaydi.

“Xotinlar o'lkasi” asari tasavvuriy hikoya ham, oddiy sarguzasht asari ham emas - u ijtimoiy-falsafiy utopik jihatdan shakllangan jamiyat sifatida baholanadi. Ijtimoiy tanqidning pedagogik asoslar bilan uyg'unligi ushbu asarning asosiy ilmiy-badiiy ahamiyatini belgilaydi. Ismoil G'aspiraliyning utopik tafakkuri mavjud jamiyatni qabul qilmaslik va muqobil ijtimoiy imkoniyatlarni badiiy jihatdan sinab ko'rish istagidan tug'ilgan bo'lib, jadid adabiyotida ijtimoiy o'zgarishga chaqiruvning eng noyob badiiy namunalaridan birini tashkil etadi.

Xulosa (Conclusion). Ismoil G'aspiraliyning “Xotinlar o'lkasi” asari jadid adabiyotida utopik va tanqidiy utopik tafakkurning muhim namunalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Asarda tenglik almashinuvi, tasavvuriy makon va ijtimoiy tajriba orqali muqobil jamiyat modeli yaratiladi hamda mavjud ijtimoiy tuzumdagi tengsizlik va ma'rifatsizlik muammolari badiiy-falsafiy tarzda ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, asar klassik utopiya emas, balki ichki ziddiyatlarga ega tanqidiy utopiya bo'lib, u jamiyatni idealizatsiya qilmasdan, aksincha, ijtimoiy tanqid va ma'rifiy islohot g'oyalarini ilgari suradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Orwell, G. Secker & Warburg. 1984.
2. Мортон А.Л. Английская Утопия. – Москва: 1956. – С.156
3. <https://www.google.com/search?q=utopik+asarlal>

<https://web-journal.ru/journal/article/view/888/843>